

Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi



Chiroyli,
ammo
ahmoq
podshoh



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:
Janie Forest; Alastair Paterson

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Lyn Doerksen

...tomonidan ishlab chiqarilgan:
Bible for Children www.M1914.org

©2021 Bible for Children, Inc.
Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz
yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Isroil etakchisi va hakami Shomuil
keksayib qolgandi. Shuning uchun u
o'zining o'rniga
o'g'illarini hakam
qilib tayinladi.
Ammo o'g'illari
yaxshi
emas edi.



Ular pullarni
yaxshi korar,
noto'g'ri yo'llar
bilan boylik
orttirar edi.




Isroilliklar ulardan azob chekardi.
Odamlarga yordam kerak bo'lsa, ular
Shomuilni o'g'illariga pul to'lashi
kerak edi.



Ammo bunga chek qo'yish kerak edi.
Shuning uchun Isroil yetakchilari yig'ilib,
Shomuildan yordam so'rashdi.




Ular: "Bizlarga podshoh ber, toki u bizga hakam bo'lsin", deb talab qilishdi. Ular Shomuilni o'g'illari hakam bo'lishini istashmadi.



Bundan Shomuilni jahli chiqdi. Axir Isroilni podshohi bor edi! Buyuk va Qudratli Xudovand Isroilni boshqarardi. Bir paytlar Xudovand Isroil xalqini Misr qulligidan ozod qilgandi. Xudo ularga qochishlari uchun Qizil dengizni o'rasidan yo'l ochib bergan.






So'ng
Xudovand
ularga Isroil
yerini bergan.




Shomuil Xudoga ibodat qildi, Xudovand shunday javob berdi:




“Ular seni emas, balki Meni rad etishdi.
Ular butlarga sajda qilib, uni o'zlariga
podshoh qilishdi.”





Xudo Shomuilga
dedi:
"Odamlarga
ayt, ularning
yerdagi
podshohi
ulardan
soliqlar
undiradi; o'zi
uchun ularning
dala ...





... va uzumzor-
laridan
istaganicha
foydalanadi;
o'g'illarini
harbiy
xizmatga
yuboradi va
qizlarini o'zi
uchun
xizmatkor
qilib oladi".



ROYAL VINEYARD

Bularga
qaramasda n
odamlar baribir
podshoh
talab
qilishdi.



Xudo Shomuilni juda yosh,
baland bo'yli yigitning yoniga
yetakladi. Uning ismi
Shoul edi. Xudo
Shomuilga shu
yigit podshoh
bo'lishini aytdi.







Shomuil Xudoga
itoat etib, Shoulni
podshoh qilib
tayinladi. U
podshohni xalqqa
tanishtirganda,
xalq: "Podshohimizni
umri uzoq bo'lsin",
deb xitob qildi.



Tez orada podshoh Shoul sinaldi.
Isroilliklarni yomon ko'radigan Ommon
xalqi ularga hujum qilishni rejalashtirdi.



Podshoh Shoul bu xabarni eshitib,
o'z qo'shinini jangga tayyorladi.






Ikki qo'shin jang qilganda, Shoul qo'shini g'alaba qildi. Shunda Shoul Xudoga: "Bugun Xudovand Isroilni g'alabaga erishtirdi", -deya hamdu sano aytdi.



Xudo Shoulga buyuk g'alaba qilishga yordam berdi. Ammo Shoul doim ham Xudoga itoat etmasdi. Bir kuni Filistlar bilan jang qilishdan oldin, u Xudoga atab qurbonlik keltirishi kerak edi.



Bu Shomuilning vazifasi bo'lib, Xudo shunday bo'lishini istashini Shoul bilardi. Lekin u Xudoga itoatsizlik qildi!



Shunda Shomuil kelib, Shoulga shunday dedi: "Sen Xudoning amriga itoatsilik qilding. Shuning uchun shohliging boshqa davom etmaydi."



Shoul qilgan ishlari katta gunoh emas,
deb o'ylashi mumkin edi. Ammo Xudoga
itoat etmaslik bu juda ham
jiddiy narsa!




Yana bir jangda Xudo Shoulga Omalek xalqini yo'q qilishni buyurdi, chunki ular yovuz odamlar edi.



Ammo Shoul Omalek shohi O'gahni o'ldirmadi.



Shuningdek ularning podalarini
ham olib qolishdi.



Shoul
bularni
qurbonlik
uchun olib
qolganini
aytdi.





Shunda Shomuil Shoulga:
"Itoat etish har qanday
qurbonlikdan a'loroqdir.
Sen Xudoning amrini
bajarmaganing uchun
endi Isroil ustidan
podshohlik
qilmaysan!" -dedi.





Lekin Shoul qilgan
gunohi uchun tavba
qildi. Ammo Xudoga
itoot etmagani uchun
qolgan umri
baxtsizlikda o'tdi.



Chiroyli, ammo ahmoq podshoh

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

1 Shohlar 8-16

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.



Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga
ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman,
Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun
o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men
sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot
bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel,
men Senga itoat qilishim uchun va Sening
frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har
kuni suhbatlashing! Yuhanno 3:16

